

INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE’LLARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Fozilov Pulat Shamilovich,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: pfozilov80@mail.ru;

tel: (90) 327-55-58

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tilidagi fiziologik holat fe’llarning asosiy grammatik xususiyatlari, ifoda shakllari qiyoslanib o‘rganilgan. Tahlil jarayonida har ikki tildagi fiziologik holat fe’llarining ma’no ko‘lamidagi bir xillik, shakl, morfologik ko‘rsatkichlari, kategorial parametrlaridagi farq qiluvchi xususiyatlar misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: morfologik struktura, agglyutinatив til, morfologik-modifikatsion xususiyat, interferensiya, kategorial parametrlar, grammatik shakl, grammatik hodisa, grammatik sema.

ГРАММАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГЛАГОЛОВ ФИЗИОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Фозилов Пулат Шамилович,

Соискатель Ташкентского государственного
университета узбекского языка и литературы

e-mail: pfozilov80@mail.ru;

tel: (90) 327-55-58

Аннотация. В статье сравниваются основные грамматические особенности глаголов физиологического состояния в английском и узбекском языках, а также формы их выражения. В ходе анализа на основе примеров показано сходство по значению, форме, морфологическим показателям, различительные особенности категориальных параметров глаголов физиологического состояния в обоих языках.

Ключевые слова: морфологическая структура, агглютинативный язык, морфолого-модификационные особенности, интерференция, категориальные параметры, грамматическая форма, грамматическое событие, грамматическая сема.

GRAMMATICAL FEATURES OF PHYSIOLOGICAL STATE VERBS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Fozilov Pulat Shamilovich,

Independent reasercher of
Tashkent State University of the
Uzbek Language and Literarture

e-mail: pfozilov80@mail.ru;

tel: (90) 327-55-58

Annotation. The main grammatical features of the physiological state verbs in the English and Uzbek languages are presented in the article, forms of expression are compared and studied. In the process of analysis, the sameness in the meaning of physiological state verbs in both languages, the distinguishing features of the forms, morphological indicators, categorical parameters are explained on the basis of examples.

Keywords: morphological structure, agglutinative language, morphological and modification feature, interference, categorical parameters, grammatical form, grammatical phenomenon, grammatical seme.

Kirish. Morfologik strukturasiga ko'ra o'zbek tili agglyutinativ til bo'lib, ingliz tili undan morfologik-modifikatsion xususiyatiga ko'ra farqlanadi. Bu esa o'z navbatida, har bir turkumning grammatik kategoriyalarida o'z aksini topadi va nutqiy voqelanishda ham shu farqlar yuzaga chiqadi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda fe'lga xos grammatik kategoriyalar sirasida zamon, nisbat, mayl, tarz, shaxs-son ajratiladi. Fe'l shaxs-sonda tuslanib gapda kishining hatti-harakati, holatini anglatadigan kesim vazifasini bajaradi. Bunday tuslanish ingliz tilida yaqqol ifodalanmaydi. O'zbek tilida esa fe'lning shaxs-son belgisi barcha zamonlarda aniq shakl orqali ifodalanadi.

O'zbek tilidagi fiziologik holat fe'llarning shaxs-son kategoriyasi	Ingliz tilidagi fiziologik holat fe'llarning shaxs-son kategoriyasi
<i>Hozir kelib qolarsan deb seni shu yerda kutib o'tiruvdim.</i>	<i>I have been sitting here waiting for you to come up.</i>
<i>Tanbehni eshitib uyalganidan Boburning yuzi qizardi.</i>	<i>Hearing the edification Bobur blushed from embarrassment.</i>
<i>Tushdan keyin bir pas dam olamiz deb mizg'idik.</i>	<i>We have napped to relax a bit this afternoon.</i>
<i>Tushlikni yeb biroz o'ynagach barcha bolalar uxladilar.</i>	<i>After dinner children played a bit, then all of them went to sleep.</i>
<i>Sen kechasi uxlamasdan tikish qilaverib holsizlanding.</i>	<i>Having been busy with sewing all nights without sleep you are now exhausted.</i>

O'zbek tilining morfologik o'ziga xosligi shaxs son shakllarining aniq, tizmili ifodalanishidadir. Ingliz tilida esa aniq shaxs-son kategoriyasi mavjud emas, tuslanish faqat **to be**, **to have** yordamchi fe'llari bilan qisman yuzaga chiqadi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ingliz va o'zbek tilidagi fiziologik holat fe'llarning grammatik xususiyatlari qiyoslangan. Grammatik ma'no, grammatik shakl hosil bo'lishidagi o'zaro o'xshash va farli jihatlar asosli tarzda yoritib berilgan. Bunda asoslangan ilmiy xulosalar shakllantirildi hamda ularni amaliyotga joriy qilish masalalari o'rganildi.

Tahlillar va natijalar. O'zbek tilida ham, ingliz tilida ham fiziologik holat fe'llari zamon tuslanishida cheklovlarga ega emas. Ma'lumki, ingliz tilida holat fe'llari davomiy zamon shaklida tuslanishi cheklangan. Masalan, aqliy faoliyat yoki hissiy holatni anglatadigan leksemalar ko'pincha davomiy zamonda qo'llanmaydi. *To love, to hate, to understand, to know* fe'llari asosan oddiy va tugallangan zamonda qo'llanadi. Agar davomiy zamonda bo'lsa *to love* yoki *to think* fe'llarining lug'aviy ma'nosi torayib *sevmok* emas *ayni damda zavqlanmoq, o'ylamoq* emas *rejalashtirmok* ma'nolarini ifodalaydi [2]. Fiziologik holat fe'llarining zamon tuslanishi esa bunday ma'no siljishiga sabab bo'lmaydi. Shuning uchun bu fe'llar zamon tuslanishida hech qanday stilistik yoki semantik cheklovga uchramaydi:

**O'zbek tilidagi fiziologik holat
fe'llarning zamon kategoriyasi**

**Ingliz tilidagi fiziologik holat
fe'llarning zamon kategoriyasi**

Hozirgi davomiy zamon: *Izg'irin sovuq va shamol dastidan butun vujudimiz muzlayapti.*

Hozirgi oddiy zamon: *Keksa inson ikki qoshiq ovqatga to'yadi.*

Hozirgi tugallangan zamon: *Sovuqda kun bo'yi oyoqda tik turib kasal bo'ldim.*

Kelasi oddiy zamon: *Bugun chaqqon-chaqqon ishlarni saranjomlab barvaqt uxlaymiz.*

Kelasi davomiy zamon: *Ertaga shu payt issiqda erib qiziyotgan bo'lamiz.*

Kelasi tugallangan zamon: *Istima Ikki soatlarda tushib bola tetiklashgan bo'ladi.*

Present continuous simple: *Due to chilly cold and cold wind our whole body is freezing.*

Present simple tense: *An old person will be full with couple of meal spoons.*

Present perfect tense: *I have got ill after staying on foot for the whole day in cold weather.*

Future simple tense: *Today we will get quick and complete all housework, then we will sleep earlier.*

Future continuous tense: *Tomorrow by this time we will be burning in hot weather.*

Future perfect tense: *After two hours the fever will decrease and the baby will have got better.*

O'tgan oddiy zamon: *Kecha istimam chiqib holsizlandim.* **Past simple tense:** *After yesterday's fever I **got exhausted**.*

Uzoq o'tgan zamon: *O'tgan yili jaziramada rosa yongandik.* **Past perfect tense:** *Last year in summer we **had burned** in hot.*

O'tgan davomiy zamon: *Kelib qolarsan deb anchadan beri shu yerda kutib o'tirgandim.* **Past continuous tense:** *For a long while I **was sitting** here and waiting for you to come up.*

Zamon fe'lining shakl o'zgartiruvchi grammatik kategoriyasi bo'lib u hatti-harakat, holatning bajarilgani, jarayoni, tugallanganligi kabi fazalariga ishora qiladi. Nutqda voqelangan kesimdan anglashiluvchi hatti-harakat, holatlar ayni bir vaqtda, ketma-ket, uzviy bo'lganligini ham zamon shakllari orqali yuzaga chiqadi. Masalan, zamon xronologik tartibi vositasida fiziologik holat ketma-ketligini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

*I **had got exhausted**, so I **slept** for couple hours and I **am fresh** now.*

***Holsizlangandim**, shuning uchun bir-ikki soat **mizg'ib oldim** va hozir ancha **tetiklashdim**.*

Ikki fiziologik holatning ayni bir vaqtda parallel sodir bo'lishi esa bir xil davomiy zamon shakllaridan anglashiladi.

*While people in tropical areas **are melting** under hot sun, we **are freezing** from chilly cold here in winter. – Tropik hududlarda odamlar jazirama tig'ida **erib ketayotgan** bir paytda biz bu yerda qahraton qish sovug'ida **muzlayapmiz**.*

Bir fiziologik holatning boshqasiga halal berishi, yoki boshqasi mobaynida yuzaga kelishi ma'nosi esa turli zamon shakllaridan anglashiladi. Buni interferensiya semasining grammatik ifodalanishi deb nomlaymiz.

*I was **freezing** in that cold room when you **opened** the door. – Sen eshikni **ochganingda** sovuqdan **muzlab yotgandim**.*

Yuqoridagi fiziologik holat fe'llari misoli shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tilidagi zamon kategoriyalari asosiy grammatik semalaridan tashqari ketma-ketlik, interferensiya va parallellik ma'nolarini ham bir xil tarzda ifodalaydi. Bu qo'shimcha semalar zamonlarning o'zaro nisbiy ma'no munosabatlari natijasi o'laroq yuzaga keladi. Zamon kategoriyasi borasida ikki tilning shakliy assimetriyasi va semantik umumiyligini kuzatamiz.

Fe'llarga xos yana bir kategoriya nisbat bo'lib, o'zbek tilidagi fiziologik holat fe'llari aniq, majhul, orttirma, birgalik va o'zlik nisbatlarida quyidagi shakl o'zgarishlariga uchraydi:

*Bir necha soat xonadan chiqmay test ishlagach talabalar juda **charchadi**.*

*Varajani to'xtatish uchun bemorning tanasi **isitildi**.*

*Bu zerikarli bachkana film barchani **esnattirdi**.*

*Botir gulhan yoqib atrofida o'tirgach biroz **isinindi**.*

*Sportchilar uzliksiz mashqlar va tayyorlovdan **charchashdi**.*

Ingliz tilida esa nisbat shakllari aniq va majhul bilan cheklanadi. Demak, ikki tildagi fiziologik holat fe'llarining yana bir kategorial assimetriyasi aynan shu nisbatda namoyon bo'ladi. Ingliz tilida orttirma nisbat ma'nosi boshqa grammatik konstruktsiya vositasida ifodalanishi mumkin bo'lsa-da, uni *voice* – nisbat kategoriyasi tarkibiga kiritilmagan:

*Students got quite **tired** sitting in a room and solving tests for several hours.*

*In order to stop shivering the body of patient **has been heated**.*

*The boring awkward film **has got** everyone **yawning**.*

Fiziologik holat fe'llarining grammatik xususiyatlari qiyosi an'anaviy aksiomaning tom ma'nodagi isboti o'laroq shakllandi. Ya'ni, tillar tizmiy farqi ularning ifoda shakllariga ta'sir o'tkazadi. Ifoda shakllari farq qilsa ham mazmun, mohiyat barcha tillar uchun umumiydir. Albatta, bu xulosa bir millat o'ziga xosligini bildiradigan milliy-madaniy realiyalarni o'z ichiga olmaydi. Biroq fe'l nutqning eng zalvorli, muhim vazifaviy elementi sifatida realiya bo'lmaydi. Demak, uning ma'nosi ham barcha tillarda umumiy. Shakliy tafovutlar esa zamon va nisbat, tarz, modal fe'llar kategoriyasidagi assimetriyada ko'zga tashlanadi. Ma'no ko'lami aynan bir xil faqat shakl, morfologik ko'rsatkichlari, kategorial parametrlari farq qiluvchi fiziologik fe'llar ham semantik hamjihatlik, morfologik xususiylikni dalillaydi.

Xulosalar. Tilshunoslik fanidagi muammolarni yirik turlarga ajratib ularni til va jamiyat, til va tafakkur, tilning o'zgaruvchanligi, tarjima muammolari, lisoniy belgilarni tizimlashtirish va tillarning o'zaro struktur farqlari masalalari guruhlariga jamlash mumkin. Til ijtimoiy hodisa bo'lganligi sabab, undagi har bir elementning sotsiolingvistik qiyofasi, milliy lisoniy tasvirda o'z o'rnini bo'lishi tabiiy. Bunday farqlar tadqiqi til va tafakkur bog'liqligini o'rganish bosqichiga yetaklaydi. Til va inson tafakkuri orasidagi bog'liqlik, inson ongida tilning o'rnini

aniqlash uchun uning doimiy o'zgarishidan xabardor bo'lish, leksemalardagi semantik siljish, dialekt o'zgarishlari, ularning sabablarini qayd etib borish ahamiyatlidir. Lisonidagi har bir birlikning o'ri, boshqa elementlar bilan aloqasi, semantik ko'lami va nutqiy voqelanish xususiyatlarini bilish tahrir, tarjima mashinalarini yaratish hamda tilni sun'iy intellekt uchun qulay, aniq sistemaga aylantirish uchun yo'l ochadi. Shu maqsadni amalga oshirish uchun leksik sathni ma'nolar atrofida tasniflab turli tillardagi parallellari bilan semantik va grammatik jihatdan qiyoslash dastlabki qadam bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili (morfologiya), – Toshkent: «Excellent Polygraphy», 2020. - 200 b.
2. Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya, 1-qism. Mustaqil so'z turkumlari. – Buxoro: Durdona, 2003. -B.43.
3. Bu haqida qarang: <https://uchiyaziki.ru/statti-po-angliyskomu-yaziku/183-sravnitelniy-analiz-grammaticheskih-kategoriy-glagola-1>.